

DUNYO TILLARI,TILLARNING BIR-BIRIGA TA'SIRI

Mirzayeva Zennura Zayniddin qizi

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti

Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyo tillari va ularning o'rni haqida mulohazalar yuritiladi. Bugungi kundagi xorijiy til hamda uning bajarayotgan vazifalari birma- bir ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar :tilshunoslik, xorijiy tillar, arab tili, turk tili, ingliz tili, o'lik tillar, tillarning bir -biriga ta'siri.

Kirish : Ma'lumki, o'zligimizni anglash, ma'naviy tomonlama yuksalish, milliy taffakur va asosiy ongning ifodasi, shuningdek har doim ajdodlar va kelajak farzandlar o'rtasidagi madaniy, ma'naviy ruhiy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Darhaqiqat, atrof-muhitimiz, kundalik tushmanishimizni kuzatadigan bo'lsak, ko'p kitob varaqlagan, uni o'qigan kitobxonlar va ma'naviyatli kishilar, dunyo kezgan ijodkor inson bilan suhbat qurbanimizda ularning o'z fikrlarini bayon etayotganda samimiylilik yaqqol namoyon bo'lib, kishi qalbini yorituvchi yoqimli so'zlar sehri o'ziga juda ham maftun qilib qo'yadi. Bunday kishilar, sokin bir tiniq daryoga o'xshaydi. Ular shovqin va ortiqcha ovozlarsiz oqadi. Bir kishining ikkinchi bir kishiga talpinishi, uni ijodkorlik mahorati va muamala madaniyati saqlanib qolgan hisoblanadi.

Dunyo tillarini o'rganish, ulardan keng qamrovli foydalanish uchun yurtimizda ham keng faoliyatli ishlar, islohatlar olib borilmoqda. Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tarzda tashkil etish chora tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora - tadbirlari to'g'risidagi" 2021 -yil 19-maydag'i PQ-5117 - son qaroriga muvofiq, shuningdek, xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi.

Tarixiy va ijtimoiy sabablar

Tarixda savdo aloqalari, urushlar va migratsiya jarayonlari turli tillarning bir-biriga ta'sirini kuchaytirgan hisoblanadi. Misol qilib, arab tili VIII-XI-asrlarda islom madaniyatining tarqalishi sababli katta hudud va davlatlarga tarqaldi va boshqa tillar ta'sir etishi yuqori bo'ldi. Masalan, Yevropa tillarining Osiyo, Afrika va Amerika hududlariga keng yoyilishi mustamlakachilik davrlarida ro'y bergen. Global til yoki dunyo tillari bo'lish uchun bir til o'ziga xos bir nechta xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Bu xususiyatlar ko'p sonli ma'ruzachilarga egaligi, bir nechta mamlakatlarda rasmiy maqomga egaligi, chet tili sifatida keng o'qitiladigan bir yoki bir nechta standart reyis mavjudligi, til nufuzi bilan assotsiatsiya, xalqaro savdo-sotiq munosabatlarida keng ko'lamma foydalanish, turli xalqaro tashkilotlardan foydalanish, ilmiy muassasalar va forumlarda keng foydalanish.

Xalqaro tillar qanday bo'lishi va qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak ekanligini bildik. Lekin shunda, shunday savol tug'iladi: Bizga global til nima sababdan va nima uchun kerak o'zi?

Birinchi bo'lib bizga tarjimalar uchun xizmat qiladi. Ona tillari butunlay va mutloq boshqacha bo'lgan insonlar tomonidan muloqot qilish, aloqa vositasi sifatida foydalaniladigan til yoki

aralashmalar tili hamdir. Shuningdek, savdo va sotiq tili, aloqalar va muloqot tili, xalqaro til va global til sifatida ham keng tanilgan hisoblanadi. Yana bir xususiyati xalqaro savdo va boshqalar uchun ishlataladi. Nima sabablarga ko'ra ingliz tili xalqaro ya'ni xorijiy til deb ataladi degan savollarga javob sifatida, ko'pchilik insonlar ingliz tilini global til deb biladi. Chunki buning asl sababi ingliz tili jahoning barcha qismida keng foydalaniladigan va keng tarqagan eng asosiysi esa aholi ko'proq tushunadigan til sanaladi. Ayniqsa dunyo aholisi bu tilni qabul qiladilar va qo'llab - quvvatlashadilar. Shuning uchun ham bu til global til hisoblanadi. Ingliz tilining asl kelib chiqishi fransuz, nemis va boshqa turli Yevropa tillari singari lotin tilidan olingan.

Ingliz tili global va dunyoga keng tarqaganining yana bir xususiyati soddaligi deb ta'kidlashadi dunyo tilshunoslari. Ingliz tilining grammatikasi va talaffuzda hamda yozuvda murakkab bo'limganligi va shu bilan birga ushbu tilning lotin yozushi tanib olishi uchun qiyinchilik tug'dirmaydi. Bu orqali yana bir savol tug'ilishi mumkin. Bu savol esa ingliz tili qanday qilib global tilga aylanib qolgan. Buning sabablariga to'xtaladigan bo'lsak, 18-asr oxiriga kelib Britaniya imperiyasi ko'plab mustamlakalarga ega chiqdi. Bundan boshqa yana bir sababi, ular butun jahonda o'zlarining geosiyosiy hukmronligini o'rnatdilar. Yana ko'plab oqibatlari texnalogiya, fan, diplomatiya, savdo va sotiq, san'at va rasmiy ta'limning hissasi ham katta bo'lib, bu ushbu ingliz tilining jahoning haqiqiy global tiliga aylanishiga olib keldi va bunga erishdi.

Global tilning afzalliklar va kamchiliklari.

1-afzallik. Turli har xil bo'lgan madaniyatlar aro muloqotni osonlashtiradi. Global til turli har xil bo'lgan madaniyatlar aro muloqot qilish imkoniyatini etadi. Global til turli to'siqlarni bartaraf etadi hamda insonlarning bir-birining madaniyatini anglash imkoniyatini taklif qiladi.

2-afzallik. Xalqaro savdo-sotiq aloqalarini osonlashtiradi. 1970-yillardan beri globallashuv va neoliberalizmning kuchayishi bilan turli mamlakatlar o'rtasidagi misli ko'rilmagan miqdordagi xalqaro savdo-sotiq va biznes amalga oshirdi.

1-kamchilik :Ilmi sohada ona tili bo'limganlar uchun ingliz tili turli xil qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Olimlarning fikriga ko'ra global til bo'lgan ingliz tili, ona tili bo'limganlar uchun foydalanishda ma'lum qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Olimlar ham o'z ishlarini dunyo miqyosida keng yoyish uchun ingliz maqolalarini o'qishi yoki konferensiyalari va muhokamalarida qatnashishlari kerak. "The Atlantic" jurnalida nashr etilgan maqolaga ko'ra, ilmiy maqolalarning 80%ingliz tilida bo'lgan. Bundan tashqari, yana maqolada ta'kidlanishicha, "ingliz tilidan boshqa tillarda ham chop etilgan jurnallarda hech bo'limganda inglizcha tezislari bo'lishi lozim".

2-kamchilik :Ozchilik tillari (juda ham kam inson so'zlashadigan) uchun katta xavf yuzaga keltiradi. BBC maqolasiga ko'ra, o'tgan asrlarda 400ga yaqin til umuman yo'q bo'lib ketgan, har uch oyda bir til va keyingi asrda qolgan hamma tillarning 50%foizi yo'q bo'lib ketadi. Buning sababi esa yo'q bo'lib ketgan til o'z madaniyatining ham yo'q bo'lishiga olib keladi. Shunday ekan hamma narsaning yaxshi va yomon tomoni bo'lgani kabi global tilning foydalarini va kamchiliklari bor. Uning foydalarini madaniyatlar aro munosabatlarni yaxshilashga va xalqaro savdo aloqalarini kengaytirishga xizmat qiladi. Uning kamchiliklari esa o'z ona tilisi bo'limganlar uchun qiyinchiliklarga olib kelishi va ozchilik tillarning umuman yo'q bo'lib, barbod bo'lishiga qo'shgan hissasidir. Darhaqiqat ingliz tili jahondagi eng keng yoyilgan va tarqagan tildir. Global miqyosda ingliz tilida so'zlashuvchilar juda ham ko'p hisoblanadi, hamda ingliz tilidan asosiy til

yoki ikkinchi til sifatida foydalanishadi. Turli xil qarshiliklarsiz jahonda hech qanday boshqa tillar ingliz tili kabi mashhur va keng tarqalmagan hamda bu til bilan raqobatlasha olmaydi.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda yer yuzida 6809ta til bor. Bu tillarning so'zlashuvchilarining ma'lum qismi Osiyo va Afrika hududlariga to'g'ri keladi. Tillarning ba'zilari rivoj topib, foydalananuvchilar soni tobora ko'payib bormoqda. Ba'zilari esa butunlay yo'qolib o'lik tilga aylanish xavfi yuqori hisoblanadi. Biror til yashab qolishi va rivojlanishi uchun unda so'zlashuvchilar soni eng minimal darajada 100ming inson bo'lishi kerak. Ayni damda 400ga yaqin til yo'qolib zavol topib borayotgan tillar safiga ro'yxatga olingan. Tillarning o'lishining va yo'q bo'lib ketishining yaqqol sababi foydalananuvchilarning notejis taqsimlanganligi va tarqalganligidir. Yer yuzi aholilarining 80%foizi 80ta tilda gapplashadi. 3500ta tildan esa sayyora aholisining atiga 0,2 %foizigina so'zlashadi. Ayni damda 46ta tilda faqat bir insongina foydalaniadi.

Lekin bu tillar boshqa insonlarga o'rgatilmasa ular tarixga aylanishi va o'tmishga qolib ketishi aniq gap. Hamda uch-to'rt inson biladigan tillar ham ko'p. 200 ga yaqin tilning esa 10 nafardan foydalananuvchisi bor hisoblanadi. Bazi ma'lumotlarga qaraganda Afrika qit'asida jami bo'lib 1000dan ko'proq tilda so'zlashadi. Papua-Gvinezada 700dan ziyod til amal qiladi. Ularning qaysi birini davlat tili o'rnila aniqlash va belgilash birmuncha vaqt tortishuv va munozaralarga olib kelgan hamda sabab bo'lgan. Shuning uchun ham konstitutsiyasida davlat tili yo'q deb belgilangan. Ish yuritishdan va hujjatlarni aynan ingliz tili hamda uning mahalliy lahjasini pijin-englishdan keng ko'lamda foydalaniшadilar. Xitoy tilining mandarin lahjasini esa eng ko'p foydalananuvchilarga ega. Unda 885milliondan ko'p inson so'zlashadi. Shu asnoda ikkinchi pog'onada ispan (332million), uchinchi pog'onada ingliz (322million) to'rtinchchi pog'onada bengal tili(189milllon) egallaydi. Ma'lumotlarga qaraganda xalqaro sun'iy til - isperantoni 1887-yili varshavalik vrach Lyudivik Zamengof kashf etgan hisoblanadi. Afrika xalqlari va aholisi so'zlashadigan suaxili tili mahalliy qabilalar, arab hamda Portugal tillari birlashmasi va chatishmasidan paydo bo'lgan. Hujjatlarda keltirilishicha Birlashgan Millatlar Tashkilotida oltita rasmiy til amalda ingliz, fransuz, Xitoy, rus, arab va ispan tillari hisoblanadi. Eng qiyin tillardan biri Bask tilidir. Hatto u tildan qiyinligi va murakkabligi sababli ikkinchi jahon urushi davrida maxfiy axborotlarni almashish va yetkazish uchun foydalilanilgan deyiladi. Yana bir murakkab til Tabasaran tilidir. U til Dog'istonda davlat tillari sirasiga qo'shilgan. Ushbu tilda 48ta kelishik mavjud. Eskimoslar tilida esa hozirgi zamon fe'lining 63ta shakli, otlarga qo'shiladigan 252ta qo'shimchalar mavjud. Sanskrit tilidagi gaplarni va adabiyotlarni tarjima qilish va tushunish uchun hamda yozish uchun ushbu tilni eng kamida 12yil o'rganish lozim bo'ladi. Juda eng qadimgi davr alifbolaridan hozirgi davrgacha yetib kelgan harf - O. Turli manbalarda tahlili qilinganda, u miloddan oldingi 1300-yillar atrofida finikiya alifbosidan foydalilanilgan hamda shu davrgacha o'zgarishlarga duch kelmag'an. Ayni paytda ushbu harf jahon xalqlari alifbolarining 65tasidan o'rin egallagan deyiladi. Xitoy tilida 50mingdan ziyod iyeroglis mavjud. Aslida gazeta o'qish uchun bularning ikkimingtasini bilish kifoya qiladi. Papua-Yangi Gvinezadagi rotakas tili alifbosida bor yo'g'i 12tagina harf mavjud. Botsvana va Namibiyada so'zlashadigan kxong tilida 112ta tovush mavjud. Hozirgi kunda Hindistonda 17ta rasmiy til mavjud hisoblanadi. Ikkinchi pog'onani Janubiy Afrika Respublikasi band etgan, hamda ushbu yerda 11ta rasmiy til amal qiladi va so'zlashadi. Adabiyotlarda keltirilishicha Kavkaz hududida 40ta tilda gapplashadi. Shulardan biri - abxzaz tilida 2ta unli va 60ta undosh tovush mavjud sanaladi. Internet tillarining yashash sharti.

Globallashuv davrida tillarning yashab qolish, eng ko'p axborot kommunikatsiyalari tarmog'iда, Internet tizimida qo'llanish darajasi bilan chambarchas bog'liq. Qanday va qaysi til internet tili emas ekan, ushbu tillarning qarshisida o'lim xatari turaveradi. Internet tili haqida gap ketar ekan, o'zbek tili internet tili emasmi degan savol tug'ilishi aniq. Sababi o'zbek tilining sahifalarida ma'lumotlar uzatilmoqda, turli xil yozishmalar amalga oshirilmoqda, ijtimoiy tarmoqlar va turli xildagi saytlar kundan-kun ko'payib sonlari ortib bormoqda. Biz ham tilimizni internet tili qilish uchun uni sayqallab, lug'atlarni, so'z boyliklarini oshirib borishimiz darkor. Avvalo kompyuter tilini tanish, anglash uchun ushbu tilni bilish hamda so'zlasha olish lozim. XX-asrning eng katta va buyuk kashfiyotlaridan bo'l mish kompyuter va axborot texnologiyalari tarmog'i uchun juda ulkan vazifalar, yuklanmalar paydo bo'ldi va tillarning kelajagi, yashab qolishi uchun asosiy ustunga aylanib qoldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Asosan kompyuter tilini tushunish uchun undagi turli matematik modellashtirishlarni vazifalarini anglash lozim hisoblanadi.

Bu orqali matematik modellashtirish natijalari va jamlanmasi sun'iy intelektning faoliyat dasturi tamoyilini paydo qilishga sabab bo'lib xizmat ko'rsatadi. Yer sharida hamda yer yuzida barchasi jam bo'lib, taxminan 5621ta til va sheva mavjud bo'lib, bugungi kungacha shulardan 500taginasи o'rganilgan xolos. Shu har uch tilning bittasida yozuv bo'l may, faqat og'zaki nutq shaklida namoyon bo'ladi. Dunyodagi 1400ta tilning butunlay yo'qolib o'lik tilga aylanib ketish xavfi yuqori hisoblanadi. Jahon tillaridan faqat 40tasigina og'zaki hamda yozma jihatdan mukammal shakllanib bo'lgan deb qabul qilinadi. Ushbu 40ta tilning ichida o'zbek tili ham mavjud albatta. Darhaqiqat, Himolayda 160 xil turdag'i til mavjud. Afrikaning Niger daryosi havzasida 280ta til bor bo'lsa, Yangi Gvineyadagi Papua davlati bu borada mutloq g'olib. Bu yerda hammasi bo'lib 3million aholi 1010 xildagi til va shevada gaplashadi. Yana bir qiziq va hayratlanarli ma'lumot Xitoy davlatida ingliz tilida gaplashuvchilar soni Amerika Qo'shma Shtatlaridagidan ko'ra ancha ko'proq hisoblanadi.

Muammo qism:

Hozirgi paytda yirik tillar, ingliz, rus, ispan, xitoy tillarining ta'siri kichik va kech shakllangan tillarning yo'qolib o'lik tilga aylanish xavfini oshirmoqda

UNESCO ning bergen ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, dunyodagi 6000dan ziyodroq tillarning yarmidan ko'pi yo'qolish xavfiga uchragan hisoblanadi. Ko'plab kichik hamda gaplashuvchilarning kamligi ba'zi tillarning unitilib, yo'q bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Turli jahonda tillar mavjud. Shu bilan birga ular bilan rangbarang madaniyat ham shakllangan. Lekin o'sha tillarning zaiflashishi ularning madaniyatining ham yo'qolib borishiga asos bo'lmoqda. Yana bir sababi esa bir mamlakatda bir necha tillardan foydalanish, ushbu tilning o'lik tilga sekin astalik bilan aylanishiga zamin yaratadi. Dunyoga keng tarqalgan, katta hududlarni egallagan tillar, bazi bir xalqlarning o'z ona tilisini unutishga, va o'zgarmaslikka undab qo'ymoqda. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra asr oxiriga kelib mavjud bo'lgan tillarning 95foizi o'lik tilga aylanadi. Har oyda jahon miqyosida 2tadan til o'layotganligi esa juda achinarli hamda dahshatlari vaziyatdir. YUNESKO ning 2017-yil 15-iyundagi bergen axborotiga ko'ra, o'lim yoqasiga kelib qolgan 2,5 ming tildan 15tasi Markaziy Osiyo xalqlariga mansub bo'ladi. Hozirda jahonda o'lik tillar soni kundan kunga ortib bormoqda. O'lik tillarga misol qilib sanskrit, got tili, prus tili va boshqa ko'plab turli tillar o'lik tilga aylanib bormoqda. Tilga davlat tilining maqomining berilishi uni yo'qolish va o'lik tilga aylanish muammosidan o'z bo'lsa ham xalos qiladi. Misol qilib udmurt, chukot, chechen tillari ham davlat tili bo'lsada yo'qolish xavfiga yuz tutayotganligi fikrimizning yaqqol isboti hisoblanadi.

Tillarning o'limi :sabablari va oqibatlari.

Bir savol tug'iladi. Til nega o'ladi degan. Chunki buning asl sababi odamlar bu tillardan foydalanmay qo'yishadi. Aksincha dunyoga mashhur va keng tarqalgan tillardan foydalanish ortidan ushbu tillarda ta'lim va tarbiya olinmaydi. Tillar ham aslida insonlarga o'xshaydi, yonmaydon, birga yashaydi, va bir-biriga o'z ta'sirini o'tkazadi. Misol qilib keltirsak, o'tgan ming yillikda dunyo tillarining 500tasi o'lik tilga aylangan bo'lsa, oxirgi yuz yillikda esa 1000ta til tarix qariga, tubiga singib g'arq bo'lib ketdi. Tillarning obro'yining yo'qolishining yana bir sababi uzoqqa bormaylik o'zimizdan, atrofimizdan qaraydigan bo'lsak inglez hamda rus tillariga bo'lgan e'tibordan ancha yuqori sanaladi.. O'zbek tilining, tilimizning yo'q bo'lishiga har birimiz hech qachon zarracha yo'l qo'ymasligimiz kerak. Shu bilan birga jahonda va butun dunyoda ham o'zbek tilini o'qitish keng tarqalgan inglez, rus, xitoy, ispan tili kabi tillar qatoriga qo'shish uchun foya beradigan ishlar olib borishimiz kerak va lozim. Sivilzatsiya tillarning taqdirida ham muhim vazifalar bajaradi. Darhaqiqat yuqorida qayd etilganidek taraqqiy etgan qit'alarda tillar soni kam, kam rivojlangan qit'alarda esa tillar soni anchayin ko'p. Misol sifatida Yevropa qit'asida 240ta til mavjud.

Ushbu ma'lumotlarni Osiyo va Afrika qit'alarini tillari soni bilan taqqoslash yetarli bo'ladi. Har bir davr tillar taraqqiyot yoki o'limiga turli sabab hamda vaziyatlar paydo bo'lgan, XX-asrgacha kolonializm, XX-asrda urbanizatsiya (shaharlashuv), XXI-asrda globallashuv tillarning o'limiga sabab bo'lib kelmoqda. Barcha tillar yashashi va rivojlanib qolishi uchun quyidagicha tasnif qilinmoqda: 1) xavfsiz tillar, 2) ehtiyyot talab tillar, 3) xavf yaqinlashayotgan tillar, 4) xavfga chalingan tillar, 5) o'layotgan tillar.

Xulosa.

Tillarning xavfsizligini ta'minlash uchun bularning belgilariga hamda yozuvlariga, ko'plab sonli foydalanuvchilariga (100mingdan ko'proq) davlat tili maqomiga va axborot texnologiyasi, internet tarmog'ida qo'llash xususiyatiga va foydalanuvchilarning hurmatiga sazovorligidan tashqari ilmlilarning tillarni saqlash va rivojlanishi uchun o'zlarining hissalarini qo'shish, tashkilotlarchilarning esa tashkiliy yo'l bilan hamfikr bo'lib, harakat qilishlari juda ham muhimdir. Darhaqiqat ona tilimizning o'zbek tilimizning o'z yozuviga, o'zining qadr-qimmatiga egaligi 30million ziyod foydalanuvchisi borligi kishini o'zgacha kayfiyatini ko'taradi. Lekin qanchalik qiyin bo'lsada, shuni aytib o'tish joizki uning axborot - kommunikatsiya texnologiyalari, davlatlar o'rtaqidagi internet tili maqomiga erishaolmayotgani va, ayniqsa ushbu masalada tegishli ilmiy hamda taddiqot muassasalari va markazlarida konseptual xarakterdag'i yo nazariy, yo amaliy, yo tashkiliy ishlar olib borilayotgani buning ham o'lik tilga aylanish xavfidan umuman xoli emasligini, hujjat va ma'lumotlar qatorida keltirilishicha ehtiyyottalab tillar safida qolib ketayotganligi namoyon etadi. Bajarilishi kechikib borayotgan bo'lsada, ushbu muhim vazifalarni bajarishga bel bog'lab kirishsak hamda uddalay olsak, ona tilimiz, o'zbek tilimiz, umuman, hech qachon, sira ham o'lmaydi! Barhayot yashaydi.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. kun. uz
2. uz.m.wikipedia.org
3. The Cambridge Encyclopedia of Language
4. fencing.uz
5. Languages of the Word
6. Ilmiy ijodiy yozishmalar kitobi
7. geografiya. uz
8. fledu.uz.